

## MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TISHNING TASHKILIY-ILMIY ASOSLARI

**Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna**

QarMII, "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrası dotsenti

### Annotatsiya

Ushbu maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning tashkiliy-ilmiy asoslari bayon qilingan bo'lib, unda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishning afzalliklari, talablarga umumiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** hisob, hisobot standart, investitsiya, kapital bozori, buxgalteriya hisobi, qiyosiy tahlil.

**KIRISH.** O'zbekiston bugungi kunda jahon hamjamiyatining faol ishtirokchisiga aylanib borayotganligini dunyo miqyosida o'tkazilayotgan sammitlardagi ishtiroki ham ko'rsatib turibdi. Xususan, joriy yilning 19 may kuni Xitoy shimoli-g'arbidagi Sian shahrida bo'lib o'tgan "Markaziy Osiyo-Xitoy" Sammitida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning ishtiroki ham alohida ahamiyat kasb etdi. Aynan, Sammitda ta'kidlanganidek. "Dunyoga farovon Markaziy Osiyo kerak. Bu jahon iqtisodiyotining tiklanishiga ham kuchli turtki beradi"<sup>1</sup>.

Shunday ekan, O'zbekistonda xorijiy investitsiyalar ko'lamini kengaytirish, xalqaro fond bozorlaridagi ishtirokini kuchaytirish dolzarb masala hisoblanadi va bunda hisob-kitob tizimini umume'tirof etilgan xalqaro standartlar asosida tashkil etish davr talabidir. Ma'lumki, buxgalteriya hisobi "biznes tili" deb qabul qilingan. Chunki, iqtisodiy subektlar bir-biri bilan iqtisodiy aloqada bo'lar ekanlar, ular o'z sheriklarning moliyaviy holatini yaxshi bilishlari shart. Moliyaviy holatini o'rganish uchun esa uning moliyaviy hujjatlarini tushunishlari, hamkorlikdagi sub'yektlar bir-biriga zid kelmaydigan bir xil tamoyil va qoidalar asosida moliyaviy hisobotlarni tayyorlashlari zarur. Bir so'z bilan aytganda, moliyaviy hisobot tiniq va aniq hamda eng asosiysi ishonchli bo'lishi lozim.

**ADABIYOTLAR SHARHI.** Bugungi kunda milliy iqtisodiyotimizda moliyaviy hisobotning

<sup>1</sup> <https://kun.uz/11143384>

xalqaro standartlariga bag‘shlangan nazariy manbalar<sup>2</sup>, ilmiy ishlanmalar<sup>3</sup> yaratish borasida ko‘plab ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda. Xususan, ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar natijasiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalarning ilmiy nashrlarda e‘lon qilinayotganligi alohida ahamiyatga ega.

Xususan, D.Narbekov, Sh.Raxmonov, A.Turayevlar hammuallifligida yaratilgan “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” o‘quv qo‘llanmasida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishning zarurligi, ushbu yo‘nalishda qabul qilingan huquqiy asoslar hamda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (IAS), moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS)ning mazmun-mohiyatining nazariy-ilmiy asoslari, uslubiy jihatlari bayon qilingan. Ammo, tahlillar ko‘rsatadiki, ushbu yo‘nalishdagi islohotlar samarasini ta‘minlashda nafaqat nazariy-uslubiy ishlanmalar, balki tashkiliy-ilmiy asoslar yuzasidan ham o‘z yechimini kutayotgan muammolarni hal qilish maqsadga muvofiqdir. Aynan tashkiliy masalalar yechimini ta‘minlash zaruratini O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori ham asoslaydi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Bugungi kunda mulkchilik va tarmoq shaklidan qat‘iy nazar, barcha xo‘jalik yurituvchi subektlarda moliyaviy hisobotlarini milliy standartlardan xalqaro standartlar asosida tuzish muhim hisoblanib, xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni xorijiy investorlar tomonidan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lishi va o‘zining sarmoyasini kiritish bo‘yicha qarorlar qabul qilishlarida yengilliklar tug‘diradi.

Ma‘lumki, buxgalteriyaning maqsadi – turli foydalanuvchilarni ma‘lumotga bo‘lgan ehtiyojini, ushbu ma‘lumotni olish uchun eng kam sarf-xarajatlar bilan qondirishdan iborat. Bunda qarorlarni qabul qilish uchun axborot tizimdan foydalanish natijasida olinishi mumkin bo‘lgan iqtisodiy naflar ushbu tizimga ketgan xarajatlardan ustun bo‘lishi lozim.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari dunyo miqyosida moliyaviy hisobot standartlarining yaqinlashishida, kelishuvida va yanada yaxshilanishida muhim rol o‘ynadi. MHXSlarining afzalliklari va foydalanish maqsadlari quyidagilardan iborat:

- ko‘pchilik mamlakatlarda hisob va hisobotga qo‘yiladigan milliy talablar uchun asos bo‘lib xizmat qilish;
- hisob va hisobotga nisbatan o‘z talablarini ishlab chiqayotgan alohida mamlakatlar uchun xalqaro etalon sifatida ishlatilishi;
- fond birjalari va tartibga soluvchi organlar tomonidan moliyaviy hisobotni Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga mos ravishda tuzilishini talab qilgan hollarda;
- kapital bozorlari uchun standartlar ishlab chiqishda to‘lig‘icha Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga asoslanishga qaror qilgan Yevropa Komissiyasi kabi milliy organlar tomonidan ishlatilishi;
- Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talab qilinmaydigan mamlakatlarda ham kompaniyalar soni ortganligi tufayli foydalanilishi.

<sup>2</sup> Narbekov D., Raxmonov Sh., Turayev A. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018., Tashnazarov S.N., Tashnazarova D.S. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O‘quv qo‘llanma. –С.: SamISI, 2018. -421 b., Ибрагимов А.К., Марпатов М.Д., Ризаев Н.К. Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари асосида банкларда бухгалтерия ҳисоби. –Т.: “Молия”, 2010. -272 б.

<sup>3</sup> Ташназаров С.Н. Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида молиявий ҳисобот: муаммо ва ечимлар. Монография. - Т.: “Navro‘z”, 2016 й. -295 б. 14., Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисоботнинг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш. Монография. - Publisher SIA OmniScriptum Publishing. GlobeEdit Publishing house. 2018. 280 p. ISBN-13:978-613-8- 24050-1.

Yuqoridagi qaydlardan ko‘rinadiki, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari dunyo miqyosida yanada kengroq foydalanilmoqda va tan olinmoqda. Hatto ba’zi mamlakatlar Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari (MHXS) ni o‘z standartlaridek o‘zgarishsiz ishlatishmoqda, ba’zilari esa mamlakat xususiyatidan kelib chiqib ba’zi o‘zgarishlarni kiritmoqdalar. Xalqaro yirik kompaniyalar tomonidan Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlaridan foydalanish ular uchun qulayligi ta’kidlanmoqda. O‘zbekistonda ham ushbu yo‘nalushda bir qator huquqiy, uslubiy asoslar yaratilmoqda. Ammo tahlillardan ko‘rinadiki, milliy iqtisodiyotimizda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tishda nafaqat huquqiy va uslubiy, balki o‘z yechimini kutayotgan tashkiliy asoslarni ham yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, MHXS talablariga umumiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinganda mavjud farqlar tashkiliy asoslarga bevosita bog‘liqligini asoslaydi.

### MHXS talablariga umumiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘zbekistonda	MHXSda
Tartibga soluvchi organlar	Davlat organlari (Moliya vazirligi, Markaziy bank)	Mustaqil kasbiy uyushmalar (IASB)
Kapitalning Shakllanish usuli	Davlat, kreditorlar, Aksiyadorlar	Mayda aksiyadorlarning keng qatlami
Moliyaviy hisobotni soliq qonunchiligi bilan bog‘liqligi	Kuchli	Kuchsiz
Moliyaviy hisobotni tuzishga malakaviylik va davlat nazorati	Moliyaviy hisobotni tuzish davlat tomonidan kuchli nazoratga olinadi	Moliyaviy hisobotni tuzishda kasb mutaxassislarining malakaviy muhokamasiga

### 1-rasm. MHXS talablariga umumiy yondashuvlarning qiyosiy tahlili

**XULOSA.** Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, MHXSlariga o‘tish muddatlari hamda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda quyidagi tashkiliy asoslarni yaratish tavsiya etiladi: - soha mutaxassislarining xorijiy tillarni bilish darajasini asoslovchi sertifikatlariga ega bo‘lishlarini ta’inlash; - sertifikatlangan diplomli buxgalterlar jamoasini shakllantirish va ular yordamida MHXSlari bo‘yicha amaliy ko‘nikma markazlarini tashkil etish; - OTMlarning soha bo‘yicha eng iqtidorli va bilimli bitiruvchi bakalavr hamda magistrlerini tizimli tartibda ishga joylashtirish va boshqalar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

- <https://kun.uz/11143384>. «Dunyoga barqaror va farovon Markaziy Osiyo kerak» - Si Jinping nutqidan iqtiboslar. <https://kun.uz/11143384>.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish

- bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 24.02.2020 yildagi PQ-4611-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-4746047>.
3. Narbekov D., Raxmonov Sh., Turayev A. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. –T.: Iqtisod-moliya, 2018.
  4. Tashnazarov S.N., Tashnazarova D.S. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. –С.: SamISI, 2018. -421 b.
  5. Ибрагимов А.К., Марпатов М.Д., Ризаев Н.К. Халқаро молиявий ҳисобот стандартлари асосида банкларда бухгалтерия ҳисоби.-Т.: “Молия”, 2010. -272 б.
  6. Ташназаров С.Н. Иқтисодийни модернизациялаш шароитида молиявий ҳисобот: муаммо ва ечимлар. Монография. - Т.: “Navro'z”, 2016 й. -295 б.
  7. Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисоботнинг назарий ва методологик асосларини такомиллаштириш. Монография. Publisher SIA OmniScriptum Publishing. GlobeEdit Publishing house. 2018. 280 p. ISBN-13:978-613-8-24050-1.
  8. Узоков, Н., Хушмурадов, О. Х., & Бабаева, Л. (2014). РОЛЬ ИНВЕСТИЦИИ В МОДЕРНИЗАЦИИ И РАЗВИТИИ ПРЕДПРИЯТИЙ В УСЛОВИЯХ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ. In *ФЕНОМЕН РЫНОЧНОГО ХОЗЯЙСТВА: ОТ ИСТОКОВ ДО НАШИХ ДНЕЙ* (pp. 376-378).
  9. Oman, X., & Alisherovich, T. S. (2022). THE ROLE AND IMPORTANCE OF CLUSTERS IN THE AGRICULTURAL SECTOR. *Gospodarka i Innowacje.*, 29, 202-206.
  10. Маматов, А. А., Жураев, Т. Т., Назарова, Ф. Х., Хуррамов, А. Ф., & Маматов, М. А. (2020). Развитие хлопково-текстильных кластеров в экономике Республики Узбекистан. *Экономика и предпринимательство*, (9), 419-423.
  11. Маматов, А. А., & Хуррамов, А. Ф. (2017). Иностраннные инвестиции как фактор экономического роста Республики Узбекистан. *Экономика и предпринимательство*, (10-2), 98-101.
  12. Samiyeva G. Dehqon xo'jaliklarini tadqiq etishning nazariy asoslari //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №. 6. – С. 171-176.
  13. Samiyeva G. T. Concepts of Poverty, Inequality and Social Exclusion //International Journal on Economics, Finance and Sustainable Development. – 2022. – Т. 4. – №. 3. – С. 122-126.
  14. Murodov, J. (2020). Мамлакатимизда хизмат кўрсатиш соҳасида олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохатлар кўлами. *Архив научных исследований*, (29).
  15. Утанов Б., Маматкулов Б., Ахмедова М., Муродов Дж. и Абдикулова Д. (2021). Взаимосвязь взаимодействия сельскохозяйственного производства с объемом дехканского производства в Узбекистане. *Илкогретим Онлайн*, 20 (3).
  16. TUYGUNOVICH, A. A., OGLI, S. O. A., & QIZI, K. Z. K. Problems of Improving Stock Market Trading Mechanisms in Uzbekistan. *JournalNX*, 6(07), 330-334.
  17. Aliqulova, A. (2020). ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF SECURITIES OF COMMERCIAL BANKS AT THE RSE “TASHKENT”. *International Finance and Accounting*, 2020(1), 13.
  18. Аликулов, А. Т. (2019). Ўзбекистонда иқтисодийни либераллаштириш ва унинг капитал оқимига таъсири. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (6), 54-58.
  19. Iskandarovich, R. R. (2022). QISHLOQ XO 'JALIGIDA AGROKLASTERLARINI BARPO ETISHNING XORIJ TAJRIBALARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 390-394.

20. Djalilov, R. H. (2021). The role of the cameral tax audit in the tax control of the republic of uzbekistan.
21. ДЖАЛИЛОВ, Р. РОЛЬ ИСТОЧНИКОВ ИНФОРМАЦИИ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ. *ECONOMICS*, (3), 42-46.
22. Рашидов, Р. И., & Муртазаев, Н. Р. (2020). DIRECTIONS OF INNOVATIVE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, 2(7).
23. Turobov, S. A., & Faxriddinov, B. F. (2021). DEVELOPMENT OF HOME-ENTREPRENEURSHIP-GUARANTEE OF AGRICULTURE STRATEGY. *International journal of trends in marketing management*, 9(1).
24. Туробов, Ш. А., & Фахриддинов, Б. Ф. Ў. (2021). УЙ ХЎЖАЛИКЛАРИ ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ–ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТАРАҚҚИЁТИ ГАРОВИ СИФАТИДА. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (4 (140)), 15-20.
25. Nakimovich, B. A. (2021). Prospects for the development of the fruit and vegetable products market. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 1270-1278.
26. Бердиев, А. Х., Фармонов, Ж. Б., & Расулов, Х. К. (2020). Эффективность переработки маслосодержащего сырья: проблемы и пути их решения. *Вестник науки и образования*, (13-3 (91)), 6-12.
27. NORMAMATOVICH, K. O., EGAMBERDIYEVNA, A. K., & NAKIMOVICH, B. K. Creating a Favorable Environment for Attracting Foreign Investment and Strengthening Its Legal Framework. *JournalNX*, 6(05), 53-56.
28. Khakimovich, B. K. . (2022). Development of Private Capital Financial Statement Audit Methodology in Accordance with International Standards. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 299–303.
29. Azimova, H. (2019). RISING THE INCOME OF POPULATION–THE GUARANTY OF LIVING STANDARD. *International Finance and Accounting*, 2019(3), 7.
30. Алимханова, А. Н., & Мицель, А. А. (2019). Оценка эффективности предприятий на основе метода ДЕА. *Доклады Томского государственного университета систем управления и радиоэлектроники*, 22(2), 104-108.
31. Равшанов, А. Д., Хасанов, Ш. Х., & Алимханова, Н. А. (2018). Қишлоқ хўжалигини инвестицион-инновацион ривожлантириш
32. Жумаева, Г. Ж., Хасанова, Ю. М., & Рузиев, З. И. СВОБОДНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЗОНЫ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.
33. Жумаева, Г. Ж. (2020). ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ХОЗЯЙСТВЕННОГО УЧЕТА И АНАЛИЗА. *Экономика и социум*, (3 (70)), 283-286.
34. Музаффарова, К. З., & Эгамбердиева, С. Р. (2022). ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ ИҚТИСОДИЁТИДА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯ ИШТИРОКИДАГИ КОРХОНАЛАРНИНГ РОЛИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 5(1).
35. Эгамбердиева, С. Р. (2021). ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАР ЖАРАЁНИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (4 (140)), 42-47.
36. Аминов, Ф. Б. (2022). РОЛЬ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В ИННОВАЦИОННОМ РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ. *Economics*, (1 (51)), 26-29.

37. Аминов Ф.Б. (2022). НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ КООПЕРАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Экономика и социум, (10-1 (101)), 232-237.